MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BOLALARINING IJTIMOIYLASHUV HOLATI

Islamova D.B.
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti assistenti
Lapasova L.B.
2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarining ijtimoiylashuv holati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, bola, ijtimoiylashuv, moslashuv, muhit, tarbiya, oila, tarbiyachi, imkoniyati cheklangan bola.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о состоянии социализации детей дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: дошкольная организация, ребёнок, социализация, адаптация, среда, воспитание, семья, воспитатель, ребенек с органиченными возможностями.

Annotation: preschool education organization in this article there is talk about the state of socialization in this children.

Keywords: preschool organization, child, socialization, adaptation, environment, upbringing, family, educator, child with limited opportunities.

Hozirgi kunda Respublikamizda "Maktabgacha ta'lim" tizimiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning 8-may kuni "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida[21]"gi qarorining qabul qilinishi fikrimizning dalilidir.

Shuningdek qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" qonun qabul qilingan. Ushbu qonun 11 bob 58 moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning 8-bobi maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan[22]. Ushbu Qonunning 45-moddasi quyidagicha ta'riflanadi; "Davlat maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning, ayniqsa, yetim

[21] https://kun.uz/uz/news/2019/05/09/maktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiyasi-tasdiqlandi-prezident-qarori
[22] https://Lex.uz

bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning, sog'lig'ining holatini tuzatishga, uzoq vaqt davolanishga hamda reabilitatsiya qilishga muhtoj bo'lgan bolalarning, shuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalardagi bolalarning ijtimoiy himoya qilinishi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi".

Jamiyatimiz kelajagi bo'lmish bolalarni "ma'rifat"li bo'lib rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'liq qamrab olish, shu bilan birgalikda bolaning ijtimoiylashuv holatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yo'lga qo'yilmoqda. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan obyektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bolada boshqa bir obyektiv ehtiyoj o'ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib boriladi:

- ✓ moslashuv (ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish)
- ✓ individuallashuv (mustaqillik, nisbatan o'ziga xoslikka ega bo'lish)[23].

Shunday qilib, ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda inson shaxsining moslashuvi va individuallashuvi jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Maktabgacha ta'limga bolaning ijtimoiylashishi, eng avvalo, muhitning o'rni ham juda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhit, avvalambor, bolaning yangi muhitga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Muhit inson kirib borishi, o'zini qulay sezishi uchun qayerda joylashganligini bilishi yetarli bo'lgan ko'cha, uy va shu kabi narsalar emas. Balki muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan tavsiflanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun ham inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi, o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham insonning oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish - turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi.

Bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri bu tarbiyadir. "Yaxshi va yomon xulqlarning hammasi sharoit tarbiya odatlanish natijasida vujudga keladi. Bilingki agar g'azab tez o'tib ketsa uning sifati xayolga takrorlanmaydi natijada kek hosil bo'lmaydi. Barkamol insonni milliy tarbiya asosida tarbiyalash ularning ruhiyati, ma'naviyati va ijtimoiy hayotda egallagan mavqeini, ularning ilm saviyasi va ma'lumot darajasini belgilab beradi".[24]

Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar, muhit, OAVlari, madaniyatlar

[23]N.Egamberdiyeva "Ijtimoiy Pedagogika" Toshkent 2009
[24] Islamova D. "Allomalarimiz ilmiy meroslarining oilaviy munosabatlardagi ahamiyati" 2021 йил 23-июнь Термизда бўлиб ўтган халқаро илмий онлайн-конференция мақолалари тўпламидан

inobatga olinadi. Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sari tarbiyaning bola shakllanishidagi hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi.

Bolaning ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining xususiyatlari sababli murakkablashishi yoki ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni bola tomonidan o'zlashtirilishida qandaydir sabablar tufayli muhitning salbiy ta'siri oqibatida noto'g'ri yo'nalishda borishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni, avvalo, tarbiya orqali amalga oshiriladi. Biroq buning uchun har bir toifadagi bolalarning ijobiy jihatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Umuman olganda, tarbiyachi va mutaxassislarning vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan bo'lib, u jamiyatda qabul qilingan qonun va me'yorlarga faol ko'nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini yengishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, bolaning jamiyatda o'sishi va rivojlanishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo'ladi. Agar bu jarayon sodir bo'lmasa, uning aksi – dezadaptatsiya ro'y beradi. Bunday holatda esa bolaning ijtimoiy reabilitatsiyaga ehtiyoji tug'iladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bolaning sotsializatsiyasi bir qator muhim bosqichlardan iborat bo'lib, ular chaqaloqning yoshiga qarab farqlanadi:

1. Chaqaloqlik (chaqaloq hayotining birinchi yiligacha bo'lgan yoshi).
2. Kichkintoy 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan o'rta bolalik.
3. Maktabgacha yosh (3 yoshdan 6 yoshgacha).
4. Kichik maktab yoshi (6-10 yosh).
5. Yoshroq o'spirin (10-12 yosh).
6. Katta yoshdagi o'spirin (12-14 yosh).
7. Erta o'spirinlik (15-18 yosh).

Buning ortidan ijtimoiylashuvning boshqa bosqichlari keladi, lekin bola emas, balki kattalar. Darhaqiqat, BMT Konvensiyasiga ko'ra bola – bu balog'at yoshiga yetmagan shaxs.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuvining yo'llari va vositalari bevosita rivojlanishning yoshiga bog'liq bo'lib, yetakchi faoliyat turi bilan belgilanadi. Yoshga qarab, bolaning shaxsiy rivojlanishidagi asosiy narsa quyidagilardan iborat:

Bir yilgacha bo’lgan bolalar uchun eng muhimi, oiladagi muloqotdir. Bu oila munosabatlari va tashqi dunyo haqidagi aosiy ma’lumotlarni o’zlashtiradigan, hatti-harakatlarning namunalarini shakllanishi orqali amalga oshiriladi.

Bir yildan keyin va taxminan 3 yil o’tgach, bolalarga bolalar guruhida muloqot qilish kerak. Shu sababli, shaxsan muloqotning to’liq imkoniyatlarini ta’minlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, ya’ni bolani erta rivojlanish guruhlariga, bog’larga olib borish muhimdir. U yerda bolalar o’zlari bilan muloqot qilishni o’rganadilar, bir-biriga jamiyatda yashashning oddiy me’yorlarini o’rgatadilar, misol uchun, do’st bo’lish kerak;

3 yoshdan 6 yoshgacha bolani dunyoga tanitishda asosiy vosita – bu nutqidir. U savollar berish, suhbat qurish va og’zaki ma’lumotni tahlil qilishni o’rganadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qamrab olinayotgan imkoniyati cheklangan va yetim bolalar, ota-onasining qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarning ijtimoiylashuvlari muhim o’rin tutmoqda. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida turli nuqsonlar bo’lgan bolalarga qarab turish qisman yoki to’liq davlat ta’minoti asosida amalga oshiriladi. Turli individual sifatlar va ko’rinishlarni hisobga olgan holda bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga baynalminal tarbiya berish maqsadida ularga turli faoliyat turlari qo‘shiq, raqs, o‘yinlar va h.k. orqali bolalarini jamoaviylik asosida shakllantirish ularning jamiyatga ijtimoiylashuvlariga muhim asos bo’lib xizmat qiladi.

Buning uchun milliy va turli xalqlarga tegishli bo‘lgan har xil harakatli o‘yinlarni tanlash, o‘rganish va bolalarga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Milliy o‘ziga xos o‘yin folklori namunalari bilan tanishish va ba’zi bir xalq o‘yinlarini bolalar hayotiga olib kirish turli xalqlar ijodiga, san’atiga va shu orqali o‘sha xalq vakillariga hurmat tuyg‘usini tarbiyalab bolaning ijtimoiylashuvini yanada mustahkamlaydi.

Mashhur pedagog K.D.Ushinskiy rus xalq o‘yinlariga yuksak baho bergan hamda ulardan bolalarni ijtimoiy tarbiyalashda keng foydalanishni maslahat bergan edi. K.D.Ushinskiyning fikricha, jamoa bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar, ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Ular bolalarda ijtimoiy hulq-atvorni tarbiyalaydi, “ijtimoiy munosabatlarning dastlabki assotsiatsiyasi”ni boshlab beradi [9].

Shunday qilib, bolaning ijtimoiy faolligini oshirishda tarbiyachining emotsional-obrazli metodikasi asosida rahbarlik qilishi muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bolalarning harakat qilish tajribasini o‘zining obrazli so‘zlari bilan bolalar tasavvuriga ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiradi, har bir bolaning ijodiy ijrochilikdan iborat o‘yin faoliyatini rag‘batlantirib, to‘g‘ri yo‘lga solib turadi.

Xulosa o’rnida jamiyatda bolaning ijtimoiylashuv jarayoni avvalombor oiladan boshlanadi, oilada psixologik muhit bolaga qanchalik kuchli ta’sir etar ekan (ijobiy, salbiy) u keyingi ijtimoiylashuv ya’ni maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o’rta ta’lim, va hokozolarda ta’siri davom etadi. Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan maktabgacha ta’lim sistemasiga bo’lgan e’tibor, deyarli barcha bolalarni MTTlariga qamrab olinishi orqali ularni ijtimoiylashuv holatini yanada yaxshilanishiga zamin yaratmoqda. Hattoki, imkoniyati cheklangan bolalarni ham maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olinishi va bu holat 2020 yildagi ta’lim to’g’ridsidagi qonunda mustahkamlab qo’yilganligi nur ustiga a’lo nur bo’ldi. Har bir bola ijtimoiy himoyaga muhtoj va teng huquqli ekanligini unutmasligimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://kun.uz/uz/news/2019/05/09/maktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiyasi-tasdiqlandi-prezident-qarori.
2. https://Lex.uz
3. N.Egamberdiyeva “Ijtimoiy Pedagogika” Toshkent 2009
4. Islamova D. “Allomalarimiz ilmiy meroslarining oilaviy munosabatlardagi ahamiyati” 2021 йил 23-июнь Термизда бўлиб ўтган халқаро илмий онлайн-конференция мақолалари тўпламидан с.445-449